SHAMOL – HARAKAT VA TAFAKKUR RAMZI (ISAJON SULTONNING ALISHER NAVOIY ROMANIDA)

Yo‘ldasheva Yulduzoy Axmadullo qizi,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori insituti tayanch doktoranti
E-mail: yoldoshevayulduz312@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19547674

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida peyzaj tasviri, xususan, shamol obrazining badiiy-falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Tadqiqotda shamol oddiy tabiat hodisasi emas, balki harakat, tafakkur, o‘zgarish va ilohiy qudrat ramzi ekanligi asoslab beriladi. “Alisher Navoiy” romanida shamol obrazining ramziy, metaforik va psixologik qatlamlari tahlil qilinib, peyzajning asosiy badiiy unsurlaridan biri sifatidagi vazifalari yoritiladi. Shuningdek, shamol obrazi orqali asar bosh qahramoni Alisher Navoiy shaxsiyatini ochishga xizmat qiluvchi muhim poetik vosita ekani aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar. *Isajon Sulton, Alisher Navoiy, shamol, ramziylik, psixologik, qahramon, ruhiyat, obraz, motiv.*

Аннотация. *В данной статье анализируется художественно-философское содержание пейзажных описаний, в частности образа ветра, в романе Исаджона Султана «Алишер Навои». В ходе исследования обосновывается, что ветер выступает не как простое природное явление, а как символ движения, мышления, изменения и божественной силы. В романе раскрываются символические, метафорические и психологические пласты образа ветра, а также освещаются его функции как одного из важнейших художественных элементов пейзажа. Кроме того, доказывается, что образ ветра является значимым поэтическим средством, служащим раскрытию личности и внутреннего духовного мира главного героя — Алишера Навои.*

Ключевые слова: *Исаджон Султан, Алишер Навои, образ ветра, символизм, психологизм, герой, духовный мир, образ, мотив.*

Abstract. *This article analyzes the artistic and philosophical significance of landscape descriptions, particularly the image of wind, in Isajon Sultan’s novel “Alisher Navoi”. The study argues that the wind is not merely a natural phenomenon, but a symbol of movement, thought, transformation, and divine power. The symbolic, metaphoric, and psychological layers of the wind image are examined, and its functions as one of the key artistic elements of landscape are highlighted. Furthermore, it is demonstrated that the image of wind serves as an important poetic device in revealing the personality and inner spiritual world of the protagonist, Alisher Navoi.*

Keywords: *Isajon Sultan, Alisher Navoi, image of wind, symbolism, psychologism, hero, inner world, artistic image, motif.*

Kirish. Tabiat tasvirini o‘rganish adabiyotshunoslikda eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Yozuvchi o‘z asarining asosiy g‘oyasini qahramonlarning xatti-harakatlari bilan bir qatorda ularni o‘rab turgan tabiat tasvirlari orqali ham ifodalaydi. Adabiyotshunoslikda ta’kidlanganidek, “Ko‘pgina asarlarda peyzaj g‘oyatda muhim g‘oyaviy-kompozitsion rol o‘ynaydi. Yozuvchi tabiat lavhalarini chizish bilan tabiatga

munosabatini ifodalaydi: tabiat go‘zalligi, boyligi va qudratini ta’rif-tavsif etadi, qalamga olingan joylar tabiatning o‘ziga xos xususiyatlarini ochadi” [1:149].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani ham Navoiyning qalbi, his-tuyg‘ulari, dardlari va ko‘plab g‘azallarining yaratilish jarayonini tabiat bilan hamohanglikda tasvirlaydi. Asarda Navoiyning yoshligidan to umrining oxirigacha bo‘lgan tarixiy voqealar mohirlik bilan qalamga olinadi. Romanning dastlabki satrlaridanoq tabiat tasviri bilan boshlanishi kitobxonni o‘ziga tortadi. Yozuvchi hech kimning xayoliga kelmagan, kichik bo‘lsa-da dunyo go‘zalligiga hissa qo‘shayotgan tabiat unsurlarini obrazli va jonli qilib tasvirlaydi:

“*Hirirud yoqasidagi o‘langlar ko‘z yetgunicha bahor naqshlari bilan hayratomuz bezalgan edi.*

Hayrat boisi shuki, u bezaklar jonli edilar. Yellarda mayin chayqalgan qizg‘aldoqlar ko‘zga yaqqol tashlangani bilan, aslida bu yerda nimalar yo‘q deysiz? Tig‘iz o‘tloq uzra yelgan yellar zabtida o‘ynagan yashil qaboqli, qirmizi dastorli yosh toliblarga o‘xshab ketuvchi qizg‘aldoqlar qatorida oq shoyi gullarini yozgan pechaklar, silliq uzun bargli yovvoyi arpa, ko‘k gul ochgan yo‘ng‘ichqa, har yer-har yerda g‘uj o‘sgan beor ajriqlar, uzun poyasi egilib qolgan kurmaklar, katta yaproqli sollangan bangidevonalar aro yana o‘zga tur tiriklik barq urib, hasharotlar vizillab, ninachilar uchib yuradi. O‘rgimchak gul shoxchalari orasiga to‘r to‘qibdi, kumush tolasi yiltiraydi. Bu ajoyib ma’voning o‘z saslari bor bo‘lib, ularga pastlikda oqayotgan daryo shovullashi ham qo‘shilib, yuzlab cholg‘ular chalayotgan tiriklik va hayot musiqasini hosil qilardi” [2:3].

Yosh toliblarga qiyoslanayotgan qizg‘aldoqlar, oq shoyi gulli pechaklar, uzun bargli arpalar, ko‘k gulli yo‘ng‘ichqa, beor ajriqlar va boshqa yovvoyi o‘simliklarning jonli tasvirlanishi tabiat manzarasiga estetik va ramziy ma’no bag‘ishlaydi. Nafaqat o‘simliklar dunyosi, balki hayvonot olamida ham hayot alomatlari seziladi. Umuman, roman boshidanoq peyzaj bahorning mo‘jizasi, tabiat va hayot uyg‘unligi, yaratilish go‘zalligini ifodalab, kitobxonni voqealar muhitiga tayyorlaydi. “Tabiat hodisalari va manzaralariga Isajon Sulton ramziy ma’no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo‘shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo‘lgan hikmatni aks ettirishga harakat qiladi. To‘g‘rirog‘i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma’noli va ta’sirli usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o‘qib butun borliqni boshqarib turgan Allohnining irodasini rosmana his etamiz”, - deya e‘tirof etadi adabiy tanqidchi Rahimjon Rahmat o‘z izlanishlarida” [3:26].

Muhokama. Isajon Sulton asarlarida shamol tasviri o‘ziga xos, hech kimnikiga o‘xshamagan peyzaj namunasidir. Shuningdek, shamol tabiat hodisasidan obraz darajasiga ko‘tarilgani ijodkorning tasvir yaratish mahorati o‘zgacha ekanidan dalolat beradi.

“Quyosh yanada qizdiradi, tug‘yonlar fasli yuz ko‘rsatadi.

Tug‘yonlar faslida shamol barcha gulchanglarni uchirib, ko‘zga ko‘rinmas to‘fon hosil qiladi. U gulchanglar yetib kelgan boshqa maysalarda misli ko‘rilmagan jo‘shish sodir bo‘ladi. Yer osti-yu ustida g‘alayon yuz beradi. Ulug‘ changlanish jarayoni shunday ro‘y bergach, har biri o‘zining gularini ochib yuboradi. Tikan ko‘k tig‘iz gul ochib, Tangriga hamd-u sano aytadi [2:4].

Romanda shamol oddiy tabiat hodisasi emas, balki hayotni harakatga keltiruvchi qudrat, yaralish va o‘zgarish ramzi sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi bahorni tug‘yonlar fasli deya ataydi va bu paytdagi shamolni barcha gul va giyohlarning changlarini uchirib to‘fon hosil qiluvchi ilohiy kuch sifatida tasvirlaydi. Tabiatdagi sokinlik o‘rnini jo‘shqinlik egallaydi va uning g‘alayoni tufayli tabiat Allohga hamd-u sano aytadi. “Isajon Sulton asarlarida – shamol yozuvchi imkoniyatidagi tuganmas poetik imkoniyat. Yaratilajak timsollar moyasi. Yozuvchi nafaqat shamol, bo‘ron, to‘fonni o‘rni-o‘rni bilan hashorat-u hayvonotni, parranda-yu parqu bulutni, kapalaklar, ninachilarni tasvirlaydi. Ularning har biri ma’no qatida ramzi sifatida aks eta boshlaydi” [4:423].

Qazo-yu qadar sarlavhali bo‘lim ham tun, sovuq, oy, shamol va zulmat kabi peyzaj unsurlari bilan boshlanadi:

“Kech kirib samoda yulduzlar miltiragach, shunday sovuq tushdiki, hujra devorlari o‘zidan muz ufurayotganga o‘xshardi. Xizmatchi tog‘orada cho‘g‘ olib kirdi, yana turshak damlab, bir oz sur go‘sht, kesma osh keltirdi. Ovqatdan so‘ng xiyol issiq o‘tganday bo‘lib, to‘niga o‘ralib oldi. Sham arang lippilar, darchadan olis-olislardagi to‘ng‘igan oy ko‘rinib, sovuq shu’lasi eski namatga tushib turardi. Bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘ylab-o‘ylab, ko‘zi ilinganini sezmay qoldi.

Shu holida u g‘alati bir tush ko‘rdi.

Bir chamanzor emish. U chamanzorda ikki kabutar “g‘u-g‘u” lashib, qanotlarini tapirlatib goh ko‘kka parvoz qilar, goh qo‘nar emishlar. Shu mahal ko‘kda ikki burgut paydo bo‘lib, har ikkisiga ham changal solib, chinqirtirib ko‘kka ko‘tarib ketdi. Yerda u sho‘rliklarning to‘zgan patlari qoldi, xolos.

Uyg‘onganda tashqarida shamol qahqaha urardi. Karvonsaroy bo‘g‘otlarida xushtak chalar, muzlagan qorlarni to‘zg‘itib o‘ynardi.[2:116].

Miltiragan yulduzlar, sovuq kecha, muz ufuratotgan xujra devorlari, to‘ng‘igan oy va muzlagan qorlar kabi obrazlar asarda peyzajning metaforik kenglikka ega bo‘lishini ta’minlamoqda. “Yozuvchi peyzaj orqali yo bevosita o‘z fikrlarini bayon qiladi yo personajlarning ichki kechinmalarini ko‘rsatadi. Har ikkala holda ham peyzaj ma’lum g‘oyani ifodalaydi” [1:149]. Ayni keltirilgan tasvirlar ham tashqi tabiat manzarasini ifodalash bilan birga, qahramon ruhiy holatini ochish va voqealarni rivojlantiruvchi badiiy vosita sifatida ham xizmat qilmoqda. Tabiat tasviri Navoiyning chamanzordagi ikki

kabutar va burgut haqidagi tushlari bilan uyg‘unlashib, peyzajning ramziy qatlamini yanada chuqurlashtiradi. Tashqi tabiat bilan qahramonning ichki ruhiy holati o‘zaro birlashib, psixologik peyzaj hosil qiladi. Natijada yozuvchi kutilayotgan fojiani kitobxonga oldindan bashorat qiladi. Keltirilgan tasvirlarda shamol ham alohida semantik yuk ko‘taradi. Uning insonlardek “qahqaha urishi” yoki “hushtak chalishi” faqat tabiat hodisasi bo‘lib qolmay, balki kelayotgan xavf-xatar belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, Navoiyning hayotiga kirib kelayotgan balo, ofat va qismat zarbalarining ramziga aylanadi. “Shamol – o‘zgarishlar timsoli, u taqdirlarni ham o‘zgartirishi mumkin“, – deydi Isajon Sultonning o‘zi” [5:409].

“Kelishda olis va mashaqqatli tuyilgan yo‘l endi qisqa va oson bo‘lib qoldi.

Maymanadan o‘tilib, Hiriyga yaqinlashildi. Hur shamollari turfa o‘tlar isini dimoqqa urgan, sigir-buzoqlari yomg‘irdan so‘ng paydo bo‘lgan katta ko‘lmaklarda qornigacha suvga botib o‘tlab yurgan o‘langlar dilda shodlik uyg‘otardi.

Bahor bir necha kun ichida o‘langlarga yashil gilamlar to‘shab ulguribdi. Nozanin Hiriy o‘zini sog‘intirgan edi. Havosi yengil va toza, salqini jonga huzur baxsh etadi”[2:156].

Ayni mana shu tasvirlar tufayli yozuvchi oddiy tabiat manzarasini emas, balki voqealar rivoji va qahramon ruhiy holatini ochib berishni maqsad qilgan. Kelishda uzoq va qiyinchiliklarga to‘la bo‘lgan yo‘lning endi yaqin va oson bo‘lishi tabiatga aloqasi yo‘qdek ko‘rinsa-da, aslida u qahramon ichki ruhiyatida yuz bergan ijobiy o‘zgarishni ifoda etuvchi pxisologik peyzaj vazifasini o‘taydi. Maymanadan o‘tib, Hiriyga yaqinlashish jarayonida tasvirlangan o‘langlar, yomg‘irdan keyin paydo bo‘lgan ko‘lmaklar va o‘tlab yurgan sigir-buzoqlar hayotning tinch va farovon ekanini ko‘rsatadi. Tabiati jonli va barhayot makon Navoiyning ichki ruhiy olami bilan uyg‘un holda tasvirlanadi.

“Hur shamollar” obrazi orqali muallif bezovtalik, urush yoki qiyinchiliklarni emas, balki bahorning tirik nafasi, yangilanish va umid ramzi sifatda aks ettiradi. Shamol turfa o‘tlar isini dimoqqa urish orqali tabiatni faqat ko‘rish emas, balki his qilish darajasiga olib chiqadi. Shamol bahor nafasini nozanin deb atalmish Hiriy uzra tarqatib, bu yerning havosini nafaqat toza va yengil qiladi, balki ruhiy ravishda ham yengillashtiradi. Ushbu parchada shamol obrazi bahor peyzajining markaziy badiiy unsuri sifatida xizmat qiladi. U tabiat uyg‘onishini, makonning go‘zalligini va qahramon ruhiyatidagi yengillik va quvonch holatini ifoda etib, peyzajni faqat tasviriy emas, balki psixologik mazmunga ega badiiy vositaga aylantiradi.

Natijalar. Yozuvchi romanlarida shamol esishi, kulishi, xushtak chalishi, qahri kelishi, urishi va xattoki chimchilashi ham mumkin va bu uning o‘ziga xos tasvir yaratish mahoratidir. Tabiatning bu hodisasi yozuvchining bolalik xotiralarida chuqur iz qoldirgan

va bu izlar asar yozish jarayonida qayta gavdalangan. “Men ulg‘aygan diyorlarda shamol juda qattiq esadi. Daraxtlarni sindirib, tomlarni uchirib ketadi. Aqlim to‘lishgan sayin, olamda undan ham kuchli shamollar borligidan xabar topdim. Masalan, fikrlarni uchirib ketadigan tafakkur shamoli, hislarni uyg‘otadiga tafakkur shamoli…

Shamolning vazifasi bitta havoni yangilaydi, barakot va rahmat bulutlarini surib keladi, shuning barobarida dov-daraxtni ham changlab, eski yaproqlarni to‘playdi. Biroq kuni kelganida vaqt shamoliga ham aylanadi, sochlarimizni tortqilab, yulqibo‘tmish onlarini va tushunarsiz kelajakdan darak ham beradi”, - deydi Isajon Sultonning o‘zi” [6].

“Falakda yulduzlar miltiragan, yaydoq dasht yellari esgan shu tunda qo‘shin yoyildi. Kuz shamoli shiddat urib, bet-yuzlarni chimchilar, otlar bo‘lajak muhorabani sezib, bezovta pishqirardi.

Otliqlar buyruqqa ko‘ra uzun va kalta qilich, yoy va uch qirrali o‘q bilan qurollantirildi. Aslaha aravalari mabodo qurol almashtirish yoki o‘q zarur bo‘lganida hayallamasin deya yaqiniga keltirildi. Har bo‘luk o‘z tanuv belgilarini taqqan, bo‘lukboshilar bo‘luklari qoshida urushga shay turishardi” [2:172].

Bu galgi peyzaj tasvirida ham kuzning shamoli, shiddatli urishi, bet-yuzni chimchilashi kabi belgilar go‘yo tabiatni jang oldi keskinligini his qilayotgan ilohiy kuch sifatida ko‘rsatadi. Falakdagi yulduzlarning yorug‘ nur sochish o‘rniga miltirashi, dasht yellarining esishi va otlarning ham bezovta bo‘lib pishqirishi nafaqat qahramonlarning, balki tabiatning, hayvonot olamining ham bo‘lajak vayronkor urushning fojiaviy ruhini oldindan sezdiradi. Yozuvchi asarda hayvonot dunyosi tasviriga ham alohida e’tibor qaratgan.

“Sokin to‘lqinlanib turgan dengiz, unda hayot kechirmog‘i iroda qilingan son-sanoqsiz jonzotlari ila timsoliy ma’nolarga aylanmoqda edi. Sho‘r shamol to‘nlarni, sall pechlarni yulqilab, suvlarni to‘lqinlantirib, kemalarni surib borar ekan, oq chag‘alaylarning chag‘illab uchishlari nelarnidir yodga solar, ummon go‘yo “Uning fazlidan talab qilishingiz uchun suvni yorib ketayotgan kemalarni ko‘rsiz. Shoyadki, shukr qilsangiz!” deb shovullardi.

Bir qancha vaqt sohilda qoldilar. So‘ng kentga qaytilgach, har kim xayrlashib, o‘z maskaniga ketdi.

Bu ko‘rilganlar Alisher Navoiyga ushbu misralarni hadya etdi:

Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur,
Mavjlig‘ daryo kabi oshufta ko‘nglim qo‘zg‘olur” [2:295].

Keyingi tasvirida dengiz manzarasi keng va harakatdagi peyzaj sifatida tasvirlanib, u faqat tashqi tabiatni ifodalash bilan cheklanmaydi. Sokin to‘lqinlanib turgan dengiz hayotning barqaroq ammo doimiy harakatini ifodalaydi va bu tashqi osoyishtalik tubida ichki harakat va ziddiyatlarni timsoliy tarzda namoyon qiladi. Dengizdagi son-sanoqsiz

jonzotlar tasviri esa borliqning rang-barangligi va tiriklikning uzluksizligi timsoli bo‘lish bilan bir qatorda insonlar olami, taqdirlar xilma-xilligining ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Ayni mana shu tasvirlar tufayli Isajon Sulton inson o‘zini borliqning ajralmas bir bo‘lagi sifatida anglashga chorlaydi. Dengiz tubidagi jonzotlar va osmonda charx urayotgan chag‘alaylar birgalikda yaralish, harakat va shukronalik g‘oyalarini ifodalovchi yaxlit peyzaj obrazini hosil qiladi. Quroniy mazmundagi iqtibos “Shoyadki, shukr qilsangiz!” esa peyzajni irfoniy darajaga ko‘taradi va insonlarni shukr, tafakkur va hayot ne’matlarini anglashga chorlaydi.

Peyzajning ta’sirchanligini oshiradigan asosiy badiiy vositalardan biri – “sho‘r shamol” obrazidir. U dengiz muhitiga xos real tabiat belgisi bo‘lish bilan birga, hayot yo‘lida uchraydigan achchiq sinovlar, ruhiy iztirob va qalb bezovtaligining ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu shamol faqat vayron qiluvchi emas, balki harakatga keltiruvchi omil hamdir. U suvlarni to‘lqinlantiradi, kemalarni oldinga siljitadi va shu orqali tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro tas’irni ifodalaydi. Ya’ni shamol bu gal insonlarga qarshi emas, balki ular bilan uyg‘un holda harakat qiladi. “Ta’kidlash kerakki, ijodkor asarlari harakatdagi peyzaj asosiga qurilgan. Ya’ni tabiat hodisalarining muttasil harakatlanib turishi, aksariyat shamol tasvirining yetakchiligi ijodkor tasviridagi o‘ziga xos xususiyatlardan biridir”[7:73].

Mazkur peyzaj tasviri Navoiyning ichki ruhiy olami bilan ham bevosita bog‘lanadi. Dengizdagi go‘zal manzara Navoiyga ilhom manbai bo‘lib yangi misralar yaralishiga turtki bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda peyzaj oddiy fon emas, balki asarni harakatga keltiruvchi asosiy omilga ham aylanadi.

“Isajon Sulton asarlarida shamolning badiiy unsur sifatida tadrijiy o‘sish, ko‘tarilish bosqichlarini kuzatishimiz mumkin. U dastlab asarga tasvir elementi sifatida kirib keladi. Peyzajning bir qismidan obrazga aylanadi. Shamol asar makonini o‘zgartirishga va o‘zgargan makonda badiiy vaqtning muayyan maqsadda voqealanishiga xizmat qilishi orqali esa motivga aylanadi. Ya’ni muallif asar voqealigini harakatga keltiruvchi kuch sifatida foydalanadi” [7:48].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shamol obrazi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida chuqur falsafiy va ramziy mazmunga ega peyzaj unsuri bo‘lib xizmat qilgan. Shamol obrazining vazifalari sifatida esa biz quyidagilarni ta‘kidlashimiz mumkin:

- tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatish;
- voqealar rivojiga turtki bo‘lish;
- personajlarning ichki kechinmalarini ifodalash;
- peyzajni yanada jonlantirish;
- ramziy-majoziy ma‘no yuklash;
- Navoiy shaxsiyatini yanada ochish va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston, 2018
2. I.Sulton. Alisher Navoiy. - Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022.
3. D.Madaminova. Badiiy mahorat va uslubiy individuallik (Isajon Sulton nasri misolida). – Urganch: Xorazm yoshlari nashriyot-matbaa uyi, 2023.- B.26
4. Sulton. Ozod: roman va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2012. 2. 5. A. Rasulov. Akslar falsafasi. Ozod: roman va hikoyalar / I. Sulton. Toshkent: Sharq, 2012.6. Iste’dod – namoyon bo‘lishni, e’tirof etilishni istaydigan mo‘jiza. Yozuvchi Isajon Sulton bilan suhbat. k.h.davron.uz.
5. X. Abdulxamidova. Isajon Sulton romanlarida xronotop.F.f.b.f.d (Phd) diss.- Farg‘ona, 2023